



TALABALAR MUSTAQIL ISHINING TASHKILIIY-USLUBIIY TA'MINOTINI HOZIRGI HOLATI VA UNING MUAMMOLARI

Hayitova I.I.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Tayanch so'zlar: mustaqil ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, onlayn ta'lim, shaxsiylashtirilgan ta'lim, ta'lim texnologiyalari, talabalarni jalb qilish, ta'lim innovatsiyalari, texnologik yutuqlar.

Ключевые слова: независимое образование, современные технологии, онлайн-образование, персонализированное образование, образовательные технологии, вовлечение студентов, образовательные инновации, технологические достижения.

Key words: independent education, modern technologies, online education, personalized education, educational technologies, student engagement, educational innovations, technological advances.

Ma'lumki, har bir mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi yoki aksincha, inqirozga yuz tutishi o'sha mamlakatdagi ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir.

Hozirda yangilanayotgan jamiyat uchun hamda erkinlashayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar uchun, avvalo, shu sifatlarga mos tarzda faoliyat ko'rsatishga qodir ta'lim tizimi zarur. Shuning uchun ham ta'lim tizimiga O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor yo'nalish deb yondashiladi. Talabalar mustaqil ishining tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish pedagogik muammo ekanligini tahlil etar ekanmiz, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrleydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni asosida "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi" qabul



qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e'tirof etish mumkin.

Shuningdek, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan mazkur muammolarni tizimli hal qilish borasida Respublikada huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori, shuningdek, mustaqil ish talqiniga bo'lgan yondashuvlarni tahlil qila turib, shuni aytish mumkinki, o'quv jarayonida uning ahamiyatini avvaldan anglab etganlarini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni mustaqil fikrlashini rivojlantirish, elektron ta'lim resurslari hamda individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

Kredit-modul tizimida respublikamiz Oliy ta'lim muassasalari yo'nalishlarining yangi davlat ta'lim standartida talabalarning mustaqil ishlashiga bunday e'tibor berilishi bejiz emas. Oliy o'quv yurtlaridagi o'quv jarayoni nafaqat ta'limning asosiy mazmuni va kasbiy faoliyatga amaliy tayyorgarlik bo'yicha ma'ruzalar, seminarlar va laboratoriya mashg'ulotlarini, balki mustaqil ishlarni ham o'z ichiga oladi. Kasbiy tayyorgarlik, albatta, muntazam ravishda mustaqil ishlashni nazarda tutadi. Shuning uchun, davlat ta'lim standartlarida mustaqil ishlash asosiy, fundamental ta'lim olishning asosiy shartlaridan biri ekanligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, bu ilmiy-texnik taraqqiyotning yuqori sur'atlari bilan belgilanadigan keyingi uzluksiz ta'limning shartidir.

Mustaqil ish didaktika kategoriya sifatida o'nlab va hatto yuzlab yillar davomida didaktiklar tomonidan ko'rib chiqilgan va ko'rib chiqilmoqda. Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish va uning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni M.Monten, T.Mor, T.Kampanella, Ya.A.Komenskiy, J.J.Russo, I.G.Pestalotstsi, A.Disterveg boshlagan bo'lsa, so'ngi yillar ichida M.G.Garunov, B.N.Esipov, V.A.Kozakov, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, N.A.Polovnikova, P.I.Pidkasisty, A.A.Abduqodirov, M.M. Aripov, U.Sh.

Begimqulov, F.M.Zokirova, Q.T.Olimov, N.I.Tayloqov, U.Yu.Yuldashev, A.Sattorov, M.A.Aripov va boshqa olimlar tomonidan rivojlantirildi.

Mamlakatimiz pedagog olimlaridan N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, A.R.Xodjaboev, R.Mavlonova, U.N.Nishonaliev, E.T.Choriev, N.A.Muslimov, O.A.Qo'ysinov va boshqalar o'z tadqiqotlarida o'quvchilar mustaqil ta'limning tashkiliy va metodik asoslari borasida fikr yuritganlar.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida T.R.Niyazmetova, R.Saidova, A.I.Axmedov, B.M.Turdibaeva, N.A.Muslimov, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.Nishonova, J.Tolipova, N.Xalilov, S.Matchanov, T.Niyazmetovalarning ilmiy ishlarida tadqiqot qilingan.

Biroq, ushbu muammoga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "mustaqil ish" tushunchasining mohiyati to'g'risida hanuzgacha bir fikrga kelinmagan va uning mohiyati to'g'risida hanuzgacha yakdil fikr mavjud emas.

Mustaqil ish tushunchasini mazmun-mohiyatini ochib berishda turli yondoshuvlar mavjud. Jumladan, mustaqil ish o'qitish metodi (A.G.Kovalev, A.I.Bushley, I.V.Kuzmin, I.Ya.Lerner) [1,2], o'qitishni qabul qilish (R.B.Sroda, T.P.Gerasimova, V.A.Korinskaya, A.V.Usova) [3], talabalar faoliyatini tashkil etish shakli (B.P.Esipov, V.A.Shchenev) [4], o'quv vositasi va o'quv va ilmiy bilish shakli (P.I.Pidkasistiy, E.L.Belkin) [5] sifatida belgilangan.

L.V.Golish va D.M.Fayzullaeva o'zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur ekanligini asoslab berishgan [7,6].

U.Sh.Begimqulov, R.X.Djuraevning fikriga ko'ra, mustaqil ishni tashkil etishda elektron resurslardan foydalanish tartibi har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda belgilanadi. Talabalarning mustaqil ish faoliyati kompyuter texnologiyasi: elektron o'quv-metodik resurslar, integrallashgan elektron lug'at-malumotnomalar hamda laboratoriya va tabiiy eksperimentlarni modellashtirish tizimidan tashkil topadi [8].

R.J.Ishmuhamedov, A.A.Abduqodirov, A.Pardaev ta'kidlaganidek, ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat olib borishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur [9].

K.Z.Abidov tomonidan respublikamizning oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ish tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish bo'yicha kafedralar oldida turgan asosiy vazifalar belgilab berilgan [10].

O.A.Abdukudusov, G.M.Anorkulova, N.Sh.Almetov, S.Yu.Ashurovalar, V.A.Skakun, tomonidan, kasb-hunar ta'limida maxsus fanlarni o'qitishda puxta,



mustaxkam bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga mustaqil ishlarining ahamiyati ochib berilgan.

I.A.Danilov o'qituvchining vazifasi bilan belgilanadigan va uning bevosita yordamisiz olingan bilim, qobiliyat va ko'nikmalarga asoslangan holda talabalar tomonidan maksimal kuch bilan bajariladigan barcha ta'lim faoliyatini mustaqil ish deb ataydi.

R.B.Sroda talabalarning mustaqil ishlarini “ular o'zlarining maksimal faolligi, tashabbuskorligini ko'rsatadigan faoliyat” deb tushunadi [12, 11].

Ta'lim faoliyatini tashkil etish nuqtai nazaridan, mustaqil ish P.I.Pidkasistiy, B.P.Esipova, A.S.Lind, M.A.Danilov, N.G.Dayri va boshqalarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotlarda mustaqil ishni to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining o'rni alohida ta'kidlangan.

A.S.Lindning fikricha: “Mustaqil ish – bu talabalarning o'quv faoliyatini tashkil etish shakllaridan biri bo'lib, ularning mustaqilligi va o'qishdagi faolligini rivojlantirishga yordam beradi. U o'qituvchining ko'rsatmalari va maslahatlari asosida auditoriyada va darsdan keyin (shu jumladan uy vazifasini bajarishda ham) bajarilishi mumkin” [13].

B.P.Esipovning ta'kidlashicha, o'quv jarayoniga kiritilgan talabalarning mustaqil ishi o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin buning uchun maxsus belgilangan vaqtda uning ko'rsatmasi bilan bajariladigan ish, deb belgilangan.

Ancha to'liq ta'rifni P.I.Pidkasistiy beradi. U ta'rifni quyidagicha qayd etadi: “Oliy ta'limdagi mustaqil ish – bu ta'lim jarayonidagi mustaqil faoliyatni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos pedagogik vositasi”, deb hisoblaydi. U “mustaqil ish” tushunchasini didaktik hodisa deb biladi, uning ikkilamchi qobiliyatida harakat qiladi.

Ba'zi mualliflar mustaqil ishni o'qitish usuli (A.V.Usova, A.K.Kovalev, N.V.Kuzmina), boshqalari o'qitish shakli (I.I. Ilyasov, V.Ya.Lyaudis, A.S.Lynda) deb hisoblashadi. Ayrim olimlar mustaqil ishni ta'lim faoliyati turi sifatida ko'rib chiqishga moyildirlar (N.G.Dayri, O.A.Nilson, R.A.Nizamov, R.B.Sroda, M.A.Danilov), boshqalari - ta'lim faoliyati usuli (I.E.Unt), uchinchi – vosita kognitiv faoliyatni tashkil etish va boshqarish (P.I.Pidkasistiy, M.G.Garunov, E.L.Belkin va boshqalar), deb tushunadi.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib, talabalarning mustaqil ish tushunchasiga biz quyidagicha ta'rif beramiz:

Shunday qilib, talabalarning mustaqil ishi – bu o'qituvchining bevosita yoki bilvosita ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladigan, talabalarning mustaqilligini shakllantirishga, bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan va qobiliyatlari bilan aniqlanadigan o'quv faoliyatining alohida shaklidir.



Talabalar ongli ravishda o'z vazifalarini, maqsadlarini belgilashlari, o'z ishlarini rejalashtirishlari lozim.

Ushbu ta'rifdan kelib chiqadiki, o'quv materiallarni o'zlashtirish darajasi, tegishli kompetensiyalarning shakllanishi ko'p hollarda o'quv jarayonini qanday tashkil etishga, qaysi metodlar va vositalar asosida talabani mustaqil ishga jalb etishga bog'liq bo'ladi.

Mustaqil ishning mohiyati talabalarning faoliyati maxsus tashkil etilganligining mavjudligi; faoliyat natijalarining mavjudligi; o'quv jarayoni texnologiyasining mavjudligi bilan belgilanadi. Ushbu parametrlar mustaqil ishni talabani bilish va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi asosida maxsus tashkil etilgan tizimli o'quv faoliyat sifatida aniqlash imkonini beradi.

Didaktikada mustaqil o'qitish mohiyati boshqalarning yordamisiz insonning turli manbalardan axborotlarni olish qobiliyati bilan aniqlanadi. Mustaqil bilish harakatisiz insonda hech qanday obraz shakllanmaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda pedagogik jarayonda ishlatiladigan mustaqil ish turlari nihoyatda xilma-xildir. Aksariyat didaktiklar va uslubchilar mustaqil ishni taqlid qilish, o'quv mashg'ulotlari, mashqlar, ijodiy xarakterdagi asarlar va h.k. kabi ish turlarini ta'kidlab, mustaqillik darajasi bo'yicha tasniflaydilar, ularning tabiati odatda bilim manbai tomonidan belgilanadi yoki mustaqil ishning didaktik maqsadi – yangi bilim olish uchun, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va sinash uchun xizmat qiladi.

Birinchi yo'nalish V.A.Dobromislov, V.V.Golubkova, E.Ya.Golantning ishlarida mustaqil ish turlarining shaxsiy tasniflari doirasida, turli bilim ob'ektlari ustida ishlashda va turli manbalardan foydalanishda talabaning aqliy hujumlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ish tizimini ishlab chiqishga harakat qilgan bilim tushuniladi. Bu borada V.A.Dobromislov mustaqil ishning quyidagi turlarini ilgari suradi: 1) faktlarni kuzatish va kuzatilayotgan narsalarni bayon qilish; 2) hodisalar orasidagi taqqoslash va aloqani o'rnatish orqali; 3) voqea-hodisani, ba'zi bir nuqtai nazardan eng muhim bo'lgan hodisani ta'kidlash orqali; 4) bir qator hodisalarda tipiklikni aniqlash, xulosalarni umumlashtirish va asoslash.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishga muammo sifatida talqin etilganligi bois, 2020 yil 23-sentyabrda tasdiqlangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham "Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi"1 deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida: "Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning etakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamqorlik aloqalarini



oʻrnatish, oʻquv jarayoniga xalqaro taʼlim standartlariga asoslangan ilgʻor pedagogik texnologiyalar, oʻquv dasturlari va oʻquv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, oʻquv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar oʻtkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor taʼlim muassasalaridan yuqori malakali oʻqituvchilar va olimlarni faol jalb qilish ...” taʼkidlanib oʻtilganligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Demak, bugungi globallashuv sharoitida taʼlim jarayonida ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalari hamda faol usullardan foydalanish, mustaqil bilim olish uchun taʼlim muassasalarining axborot-taʼlim muhitini shakllantirish, axborot texnologiyalarga asoslangan zamonaviy didaktik vositalarni mustaqil taʼlimda joriy etish, mustaqil ishlarni tashkil etishda talabalarning motivatsiyasini oshirish, ilgʻor tajribalardan saboq berishning turli yoʻllaridan keng foydalanish – davr talabi boʻlib qolmoqda. Shuningdek, oliy taʼlim tizimida taʼlim olayotgan talabalarning tanlagan kasbiga moyilligi, layoqatlari, bilim va koʻnikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yoʻnalishlari boʻyicha mutaxassis sifatida shakllanishlari uchun ixtisoslik fanlarni oʻqitishni samarali tashkil qilishni taʼminlash lozim. Har qanday jamiyatda boʻlganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy muammo hisoblanadi. Mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning sifat va samaradorligini oshirish borasida ham soʻnggi yillarda keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning mustaqilligi, ijodkorligi, tadbirkorligi, faolligi kabi xislatlarni tarkib toptirishga alohida eʼtibor berilmoqda.

Keyingi yillarda respublikamizning oliy taʼlim muassasalarida axborot taʼlim-muhitini yaratish va undan talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishda foydalanish boʻyicha bir qator ijodiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etish, ularni individual tayyorlash uchun Moodle (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) elektron oʻquv muhitidan foydalanish yoʻlga qoʻyildi. Biz pedagogik faoliyatimizda “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan Moodle-platformasi orqali talabalarga nazariy maʼlumotlarni etkazish bilan bir qatorda, mustaqil ishlarni tashkil etishda onlayn-rejimida maslahatlarni tashkil etishga erishdik. Fan boʻyicha tajriba mashgʻulotlarining bir qismi Columbus virtual muhitida tashkil etildi va ularning hisobot natijalari talabalar tomonidan Moodle tizimiga joylashtirildi. Tajribalar shuni koʻrsatadiki, LMS (Learning Management System) – oʻqitishni boshqarish tizimi bazasida masofaviy texnologiyalardan foydalanish natijasida faol oʻquv jarayonini tashkil etish, talabalarning mustaqil ishlash koʻnikmalarini shakllantirish va oʻquv materiallarini oʻzlashtirish darajasini oshirishga erishish mumkin.

U.Sh.Begimqulov taʼkidlaganidek, yagona axborot-kommunikatsiya muhitini tashkil etishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishga qaratilgan texnik dasturiy va metodik vositalar taʼlimning axborotlashtirilgan muhitida oʻquv-



metodik majmualardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratishi bilan muhim ahamiyatga ega.

Axborotlashgan jamiyatda, masofaviy o'qitish zamonaviy ta'limning eng muhim va tobora ommaviylashib borayotgan shakli sanaladi. Masofaviy o'qitish uslubi o'qitishning yangicha zamonaviy shakli bo'lib, u talabning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

A.A.Abdugodirov masofaviy o'qitishni quyidagicha ta'riflaydi: masofaviy o'qitish-o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentalar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o'qitish vositalari va h.k), Internet –texnologiyasining maxsus vositalari va boshqalar bilan amalga oshiriladigan hamda interfaollikni ko'zda tutgan o'qituvchi va o'quvchilarning masofadan turib o'zaro aloqa qilishidir.

Masofaviy o'qitish tizimi – innovatsion tizim sifatida asosan talabalar tomonidan talab qilinadigan bilim va bilim sifatini mustaqil ravishda o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, shu bilan birga an'anaviy va yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni ta'minlaydi. Unda ma'ruza materialining (o'qituvchi bilan bevosita aloqada) mustaqil ish hajmiga nisbati 10% ni va shunga mos ravishda 90% ni tashkil qiladi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Buyuk Britaniya, Amerika Qo'shma Shtatlari va boshqa rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy universitetlarida muxtoriyat, avtonom (autonomy), o'z-o'zini boshqarish (self-instructed work), mustaqil ishlash (self-directed work) va boshqa sohalar rivojlanib bormoqda.

Masalan, Buyuk Britaniya universitetlarida talabalarning faoliyati mustaqil bilim olishga yo'naltirilganligi (ularning mustaqil ravishda rejalashtirish va mustaqil ravishda tanlangan kursni tashkil etish, ularning faoliyatini mustaqil boshqarish va uni amalga oshirish jarayonini boshqarish nuqtai nazaridan) bilan belgilanadi. Maslahatlar talabalarning bilimlarni egallash, anglash va mustahkamlash bo'yicha samarali mustaqil ishlarining zaruriy sharti sifatida qaraladi. Ular talabalarning bilim faolligini rag'batlantiradi, ijodiy muhitni yaratishga hamda talabalar va o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorligini ta'minlaydi.

Hozirgi vaqtda Evropaning ko'pgina universitetlarida ta'lim asosan talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatiga yo'naltirilgan. Chet ellik o'qituvchilarning ta'kidlashicha, bilimlarni haqiqiy, uzoq muddatli sifatli o'zlashtirish, tizimlashtirish jarayoni faqat talabalarning o'z-o'zini tarbiyalash faoliyati natijasida yuzaga keladi. Bilimlarni sinab ko'rish va aniqlashtirish uchun har qanday tashabbus talabning o'zidan kelib chiqadi, o'qituvchining vazifasi – ma'lum kunlarda kerakli maslahatlarni tashkil etib, talaba tushunmagan topshiriqlarga oydinlik kiritadi. Evropa ta'limi talabadan uning shaxsiy tashabbusini, o'qituvchilar bilan muloqot qilish istagini, shaxsiy ish jadvalini tuzishga tayyorligini talab qiladi. Ko'pgina universitetlarda talaba birinchi navbatda mustaqil ishlarni, jumladan kurs ishlarini, ilmiy tadqiqotlarni va berilgan



topshiriqlarni to'liq bajarishi va uni o'qituvchiga taqdim etishi lozim. Shu sababli, G'arb mamlakatlarida o'qituvchining dars yuklamalari hajmi kamaytiriladi, bu o'z navbatida ularga talabalar bilan individual ishlashga imkon beradi. Har bir talaba uchun individual ish jadvali bo'yicha optimal sur'atda o'qish imkoniyatlari yaratiladi. O'quv jarayonini bunday tashkil etilishining majburiy komponentalarini quyidagilar tashkil etadi:

- ta'lim jarayonining o'quv-uslubiy ta'minoti elektron va bosmali variantlarda mavjudligi;
- har hafta bajarilgan mustaqil ish sifatini nazorat qilishning elektron tizimini tashkil etilganligi, uning asosida mustaqil ish topshiriqlari tekshiriladi va mini-test o'tkaziladi;
- Kembrij va Oksford universitetlarida o'qituvchining har bir talabasi, ilmiy rahbar bilan va fan o'qituvchilari bilan doimiy aloqalarni o'rnatadi [58].

Britaniyadagi ochiq universitetlarda talabalarning mustaqil ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun o'quv dasturlarini yaratishning pedagogik modeli ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, talaba o'quv jarayonining markazida turadi, bu Buyuk Britaniya Ochiq Universitetining (BBOU) quyidagi shiorini aks ettiradi: "O'qitish emas, balki o'rganish imkoniyatini berish". Mustaqil ta'lim ko'plab chet ellik pedagog-olimlarning (Brockett R.G., Brookfield S., Candy P.C., Knowles M., Sargant N., Tough A.M. va boshq.) tahlil predmeti bo'lib hisoblanadi.

Mashhur olim Charlz Xeys mustaqil ta'lim jarayonini hayotiy manba sifatida talqin qiladi va o'z-o'zining faoliyatini nazorat qilishni hayotiy ustuvor vazifa sifatida qabul qilish g'oyasini ilgari suradi.

Amerikalik olim Malkolm Noulz mustaqil ta'limni individlar bironing yordami yoki yordamisiz o'z ta'lim ehtiyojlarini aniqlash, ta'lim maqsadlarini belgilash, insoniy moddiy resurslar, o'qitish manbalari bilan ta'minlash va tanlash, shuningdek tegishli ta'lim strategiyalarini amalga oshirish tashabbusini olish jarayoni sifatida tavsiflaydi.

Amerikalik pedagog-olimlar S.Merian va R.Kafellalarning ishlarida mustaqil ta'lim "ta'lim oluvchilar o'zining o'qish tajribasini rejalashtirish, uni bajarish va baholash uchun asosiy ma'suliyatni o'ziga oladigan o'qitish formasi sifatida" baholanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning oliygohlarida o'tkaziladigan o'quv kurslar, ma'ruzalar yoki seminarlar talabalar yig'iladigan uzoqlashtirilgan o'quv auditoriyalarga sinxron teleko'rsatuv, videoanjuman, radioeshittirish ko'rinishida telekommunikatsiya kanallaridan uzatiladi. Bunda bir o'qituvchi bir vaqtni o'zida talabalarning katta auditoriyasi bilan ishlaydi. Ushbu model bo'yicha AQShning Viskonsiya universiteti (Wisconsin University, USA)da, shuningdek, Xitoyning



markaziy radio va televedenie universiteti (China Central Radio and TV University) masofali o'qitishni tashkil etgan.

Hozirgi kunda oliy ta'lim pedagogikasida mustaqil ish kontseptsiyasini qayta ko'rib chiqish va uni oliy ta'lim muassasining o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida talqin qilish tendentsiyasi mavjud (ma'ruza, seminar, laboratoriya ishlari va h.k).

Bizning tadqiqotimiz auditoriyadan tashqari vaqtda talabalarning mustaqil ishlarini masofali o'qitish vositalari asosida tashkil etishning tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish muammosiga bag'ishlangan. "Mustaqil ish" atamasini talqin qilishda mavjud bo'lgan noaniqlikni bartaraf etish uchun biz masofaviy o'qitishda "auditoriyadan tashqari mustaqil ish" tushunchasidan foydalanishni tavsiya etamiz. Chunki, masofali o'qitishda mustaqil ishlar kompyuterli o'qitish texnologiyalarga asoslangan auditoriyadan tashqarida bo'lgan muhitda amalga oshiriladi. Talabalarning sinfdan tashqari mustaqil ishlarini ta'lim muassasida o'quv jarayonini tashkil etish shakllaridan biri sifatida baholash lozim.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ish – bu o'qituvchining topshirig'iga binoan va metodik rahbarligida, lekin uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriladigan o'quvdan tashqari vaqt davomida amalga oshiriladigan talabalarning rejalashtirilgan o'quv, tadqiqot faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil ishni tashkil qilishda shaxsning qobiliyatlarini maksimal darajada o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishga, uni mustaqil ta'lim va ijodiy faoliyatning har xil turlariga jalb qilishga alohida e'tibor beriladi. Shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar mustaqil ishni nafaqat tashkiliy (protsessual) tomondan o'rganadilar, balki mustaqil ishning ichki, ushlab turuvchi – faollik mohiyatini ochib berishga harakat qilishadi.

Pedagogik amaliyotda mustaqil ishni tasniflash uchun quyidagi mezonlar asos qilib olinadi: bilim faoliyati darajasi, mustaqillik darajasi, talaba faoliyatining tuzilishi, didaktik maqsad. Turli xil yondashuvlarga qaramay, bu tasniflar ko'p jihatdan bir-birini qo'llab quvvatlaydi va to'ldiradi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkiliy-metodik ta'minoti va amaliyotini tahlil qilish ushbu sohadagi muammoni aniqlashga imkon berdi:

- talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini shakllantirish;
- mustaqil ishni tashkil etishda maktab va oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi uzluksizlikni amalga oshirish;
- o'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalash vositasi sifatida mustaqil ishlarni ko'rib chiqish;
- shaxsiy differentsiallashtirilgan yondashuvni amalga oshirish;
- talabalarning aqliy mehnat madaniyatini shakllantirish;



- har xil turdagi darslarda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish xususiyatlarini tashkil qilish;
- talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilishni ilmiy-uslubiy va moddiy jihatdan ta`minlash;
- mustaqil ishni tashkil etish jarayonida o`qituvchining sub`ektivligini rivojlantirish;
- sinf va sinfdan tashqari mustaqil ishlarning kombinatsiyasi;
- mustaqil ishni tashkil etishda axborot texnologiyalarini qo`llash va boshqalar.

Shu bilan birga, mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy shakllari va usullari, natijalarni kuzatib borish tizimi – bu oliy o`quv yurtlari amaliyotidagi eng zaif nuqtalardan biri va pedagogik nazariyaning, ayniqsa zamona bilan bog`liq holda, eng kam o`rganilgan muammolaridan biridir. Ta`lim holati (oliy ma`lumotni diversifikatsiya qilish, ta`lim standartlarini joriy etish, pedagogik monitoring tizimlarini joriy etish va boshqalar)– Talabalarning mustaqil ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga bag`ishlangan tadqiqotlarda (L.G.Vyatkin, M.G.Garunov, B.P.Esipov, V.A.Kozakov, I.Ya.Lerner, M.I.Maxmutov, N.A.Polovnikova, P.I.Pidkasistiy va boshq.), ushbu faoliyatning umumiy didaktik, psixologik, tashkiliy-faoliyat, uslubiy, mantiqiy va boshqa jihatlari ko`rib chiqildi, o`rganilayotgan muammoning ko`p jihatlari ochib berildi, ayniqsa, an`anaviy didaktik rejada. Shu bilan birga, talabalarga yo`naltirilgan ta`lim nuqtai nazaridan individual qiziqish, qobiliyat va moyillikni hisobga olgan holda ajralmas pedagogik tizimni ifodalovchi mustaqil sinf va sinfdan tashqari bilim faoliyatini motivatsion, protsessual, texnologik qo`llab-quvvatlash masalalariga alohida e`tibor talab etiladi.

Biz tomondan o`tkazilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, umumkasbiy fanlarni o`qitishda tashkiliy-uslubiy ta`minot va didaktik vositalar ayrim hollarda kasbiy pedagogika talablariga, talabalarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilim va ko`nikmalarini samarali baholashga mos kelmaydi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish, mavjud muammolarni echishning asosiy yo`llaridan biri oliy o`quv yurtlarining axborot-ta`lim muhitini yanada takomillashtirish, mustaqil ta`limning metodik ta`minotini elektron ta`lim resurslar bilan ta`minlash, ulardan foydalanish orqali talabalarning bilim olishlarini yanada rivojlantirishga erishish hisoblanadi.

Oliy ta`lim muassasalarida axborot ta`lim muhitini axborotlashgan jamiyat talablariga mos ravishda shakllantirish, umumkasbiy fanlarni o`qitishda mustaqil ishlarni masofaviy texnologiyalar asosida samarali tashkil etish va foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslarini o`rganish va nazorat tizimini ishlab chiqish orqali talabalarning fanlarni samarali o`zlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, mustaqil ishlarning tashkiliy-uslubiy ta`minotini yanada takomillashtirish va ta`lim jarayoniga joriy qilish bilan birga masofali o`qitishning asosiy didaktik vositasi



hisoblangan elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish asosida o'qitish – o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi.

Masofaviy o'qitish tizimida axborot-ta'lim resurslaridan, multimedia vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari mustaqil ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv ma'lumotlarini gipermatn shaklida taqdim etish, ovoz, grafik, video va animatsiyaning vizual xususiyatlaridan foydalanish imkonini berish materialni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, aynan elektron darsliklar, elektron trenajyorlar, multimediali vositalar, elektron entsiklopediyalar, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi elektron vositalarni yaratish va ulardan mustaqil ta'limni tashkil etishda maqsadli foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishiladi.

Biz tomonimizdan umumkasbiy fanlardan ("Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani misolida) masofaviy o'qitishning elektron vositalari asosida mustaqil ishlarni samarali tashkil etish vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga qay darajada muvofiq kelishini aniqlash va ularni yanada takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borildi.

Texnika oliy o'quv yurtlarida "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fani talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishga va kasbiy bilim, kerakli ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ko'mak beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buyurtmachilarning talablariga javob beradigan malakali kadrlar tizimini shakllantirishdan asosiy maqsad talabalar tomonidan zarur bilimlarni o'zlashtirishlari bilan bir qatorda ularning intellektual qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmasini hosil qilishdir.

Olib borilgan kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, "Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari" fanidan mustaqil ishlarning tashkiliy-uslubiy ta'minotini shakllantirish va undan masofadan foydalanib o'qitish talabalarga fanning nazariy materiallarini chuqur o'rganishga, mavjud muammolarni echishda muqobil qarorlar qabul qilish, axborotlarni olishning zamonaviy vositalardan foydalanish malakalarini shakllantiradi. Bu borada mustaqil ishlarni masofaviy texnologiyalar vositalaridan foydalanib tashkiliy-uslubiy ta'minotini takomillashtirish va undan samarali foydalanish orqali o'quv fanlaridan auditoriya mashg'ulotlarini qisman kamaytirish va mustaqil ishlar ko'lamini oshirishga erishish mumkin.

Bizning fikrimizcha, mustaqil ishlarni tashkil etishda auditoriya va mustaqil ishlarga ajratilgan soatlar nisbatiga e'tibor beradigan bo'lsak, normativ hujjatlarda ushbu ko'rsatgichning aksariyati nisbati 1:1 bo'lsa, Evropa va Amerika standartlari uchun bu nisbat odatda 1:2, hatto 1:3-ni tashkil qiladi. Aynan mustaqil ish ko'lamini ma'ruza, seminar mashg'ulotlariga nisbatan uch baravarga oshirish mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilashga samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda oliy ta'limning



kredit-modul tizimiga o'tish jarayonida talabalarning mustaqil ishlari ulushining ko'payishi muqarrar bo'lib qolmoqda.

Demak, oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini tashkil etish asosiy masalalardan hisoblanadi. Bu borada quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohotlar negizida ta'lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun o'qitish jarayonini shunday tashkil etish kerakki, bunda talabalar ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo'llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq texnikasini rivojlantirishga xizmat qilishini ta'minlashga e'tibor qaratish lozim.

Zamonaviy oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarni tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirish emas, balki ularni muammoli fikrlashga, yangi bilimlarni o'zlashtirishda ijodiy faollikka yo'naltirishdir.

Masofaviy o'qitish vositasidan foydalanib talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda tashkiliy-metodik ta'minot ta'lim oluvchilarni to'laqonli axborotli qo'llab-quvvatlashga xizmat qilishi kerak. Oliy ta'lim amaliyotida mustaqil ish, uni rejalashtirish, tashkiliy formalari va metodlari, o'zlashtirish natijalarini kuzatib borish tizimi to'liq o'z echimini topishi kerak.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning tashkiliy-metodik ta'minotini ishlab chiqishda ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasi darajasining mosligini ta'minlash, didaktik materialning pedagogik maqsadga muvofiqligining mavjudligini va ta'lim muassasining moddiy texnik hamda dasturiy-axborot ta'minotining imkoniyatlarini nazarda tutish lozim.

Mustaqil ishlarni rejalashtirish, nafaqat uning maqsadi, mazmuni, formalari, metodlari va bajarish muddatini nazarda tutadi, balki uni bajarishning asoslangan normativ-kredit birligini ham inobatga olishi kerak.

Mustaqil ishlarning mazmuni, uning tashkiliy-uslubiy ta'minotidan kelib chiqqan holda turli forma va metodlardan foydalanishni nazarda tutishi, o'quv topshiriqlarining variativ xarakterga ega bo'lishini ta'minlashi kerak.

Axborot-ta'lim muhitida talabaning mustaqil ishini tizimli ravishda nazorat qilib borish, talabaga metodik jihatdan to'g'ri yo'l ko'rsatish orqali kam vaqt sarf qilgan holda o'quv materiallarni o'zlashtirish orqali ta'limni intensivlashtirishga erishishni ta'minlash lozim.

Mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan fikrlarga asoslangan holda aytish mumkinki, oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayonini amalga oshirishda innovatsion ta'lim texnologiyalardan keng foydalanish, tizimli ishlarni yo'lga qo'yish, mustaqil



ishlarning tashkiliy-uslubiy ta' minotini hozirgi davr talablari asosida shakllantirish, talabalarni mustaqil ishlashga o'rgatish ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy - siyosiy hayotda mustaqil ravishda o'z o'rmini topa olish malakasiga ega bo'lgan, istiqboliy vazifalarni qo'yish va hal qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga asos bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. Skakun V.A. Umumslesarlik ishlaridan ishlab chiqarish ta'limi. // – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 264 b.
2. Ochilov M. O'qitish usuli-pedagogik texnologiyaning asosiy komponenti // “Xalq ta'limi”, 1999, 6-son. – B. 32-35.
3. Blended Learning Model Definitions // Clayton Christensen Institute [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa: <http://www.christenseninstitute.org/blended-learning-definitions-and-models/> (data obra-sheniya: 17.05.2021).
4. Imomnazarov M., Eshmuxamedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari: (Oliy o'quv yurtlari uchun ma'ruza matnlari) // Tahrir hay'ati: H.S.Karomatov, N.Ibrohimov va b.; – Toshkent: “Toshkent islom universiteti”, 2001. – 432 b.
5. Валетов В.В. Пашкас В. К., Мамчик В.Р. Проблемы организации модульной системы обучения. Адукация и выхавание. 1999. – №2. – С. 14-16
6. Пидкасистий П.И. Педагогика. Учебное пособие / – М.: Высшее образование, 2006. – 432 с.
7. Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – Toshkent: TDIU, 2014.
8. Begimkulov U.Sh., Djuraev R.X. va b. “Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot” Monografiya. – Toshkent: Fan, 2011. – 232 b.
9. Ishmuhamedov R.J., A.A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
10. Abidov K.Z. Ta'limda kompetentli yondoshuvni joriy etish asosida talabalarining mustaqil ishi tizimini yangilash bo'yicha kafedra oldida turgan asosiy vazifalar. // “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti” jurnali. 2017. №1. – B. 123-127.
11. Куликова Е.В. Дистанционное обучение как технологическое решение электронной информационно-образовательной среды вуза. Вестник Сибирского института бизнеса и информационной технологии. – №1(21) 2017.
12. Ибрагимова Е.М. К вопросу о сущности понятия «Самостоятельная работа» Казанский педагогический журнал. 2013.
13. Бондарь Л.А. Современные подходы к проектированию модели организации самостоятельной работы студентов-филологов в условиях высшего учебного заведения // Инновации в образовании. – 2013. – № 11. – С. 5-14.
14. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitishga doir 100 savolga 100 javob. – Toshkent: O'zR Prezidentining Iste'dod jamg'armasi. 2005. 36b.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada oliy ta'limda mustaqil ishlarni tashkil etishning hozirgi holati va uning muammolari ko'rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается современное состояние организации самостоятельной работы в высшей школе и ее проблемы.

SUMMARY

This article examines the current state of organizing independent work in higher education and its problems.